

## ZULFIYA SHE'RLARIDA AYOL FALSAFASI VA YURT BARQARORLIGI

*Eraliyeva Shohsanam Muzaffar qizi*

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi talabasi*

**Annatatsiya:** Zulfiya Isroilovani ijodini milliy zaminga teran tomir otgan daraxtga o‘xshatish mumkin. Zulfiya har bir o‘zbek ayoliga o‘rnak bo’la oladi. Davr va poeziya ayol erki, ayol qalbi, ona baxti va armonlarini kuylovchiga intizor bo‘lgan paytda Zulfiyaxonim bir chaqmoq kabi ana shu bo‘sqliqni to‘ldirib yuzaga chiqdi. Uning sadosi chaqmoqday bo‘lsa-da, davriyligi qisqa bo‘lmadi. Hayot sinovlari, yo‘qotishlar, baxtga, muhabbatga limmo-lim qalb tug‘yonlarini to‘sса olmadi. Zulfiyaxonim sermashaqqat ijod bog‘ining haqiqiy malikasi edi. Ushbu maqolada Zulfiya ijodidagi o‘ziga hos bo‘lgan ayollik obrazi keng ochib berilgan

**Kalit so’zlar:** Nilufar, hayot varaqalari, Javoharlal Neru, kuylarim sizga, O‘zbekiston xalq shoirasi.

**Аннотация:** Творчество Зульфии Исраиловой можно сравнить с деревом, имеющим глубокие корни в национальной почве. Зульфия может быть примером для каждой узбечки. В то время, когда поэзия ждала певицу женского мужества, женского сердца, материнского счастья и мечты, Зульфияханим словно молния заполнила эту пустоту. Хотя его звук был подобен молнии, его продолжительность не была короткой. Жизненные испытания и потери не смогли остановить стремление сердца к счастью и любви. Зульфияханим была настоящей царицей сада трудолюбивого творчества. В данной статье широко раскрывается уникальный образ женственности в творчестве Зульфии.

**Ключевые слова:** Нилуфар, страницы жизни, Джавахарлал Неру, мои песни вам, Народный поэт Узбекистана.

**Annotation:** Zulfia Israilova's work can be likened to a tree with deep roots in the national soil. Zulfiya can be an example for every Uzbek woman. At a time when poetry was waiting for a singer of a woman's courage, a woman's heart, a mother's happiness and dreams, Zulfiyakhanim appeared to fill this void like a bolt of lightning. Although its sound was like lightning, its duration was not short. Life's trials and losses could not stop the heart's desire for happiness and love. Zulfiyakhanim was a true queen of the garden of hard-working creativity. In this article, the unique image of femininity in Zulfiya's work is widely revealed

**Key words:** Nilufar, life pages, Jawaharlal Nehru, my songs to you, People's Poet of Uzbekistan.

**Kirish** Zulfiya Isroilova xalqimizning atoqli va ardoqli vakili, O‘zbekiston xalq shoiri, xalqaro «Nilufar», Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari sohibasidir. U 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Dergez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang‘ich mакtabda, so‘ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935–1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida o‘qigan. 1932 yil 17 yoshni qarshi oлганда, uning “Hayot sahifalari” nomli ilk she’riy to‘plami omma yuzini ko‘rdi. Bular — yoshlар, do‘slik, inson qalbining go‘zalligi haqidagi she’rlar edi. So‘ngra, she’rlari, dostonlari va hikoyalari e‘tirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar ko‘rinishida chop etila boshladi. 1938 yildan u turli yirik nashriyotlarda ishlaydi, respublika va respublikalar aro har xil tashkilotlar a’zosiga aylanadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Shoira ijodini kuzatar ekansiz, uning she’rlarida olislarga qadalgan nigohlar, kutish, sabr, ayol orzusi, kuchi hijrondan yaralangan mungli ohanglar, muhabbatdan yaralangan ko‘ngilning nidosini, ko‘rishingiz mumkin. Ikkinci jahon urushida O‘zbekistonlik ayollar o’zlarining vatanparvarligi, va fidoiyligini namoyom etgan holda qahramonlik

ко'rsatdilar. Shuningdek, mard-jasur o‘g‘lonlar bilan bиргаликда yurt ravnaqi uchun kurashgan fidoiy va qahramon bo‘lgan, mard-u mardu maydonda ayollar ham kurash olib bordilar. Zulfiyaning hayoti bunga yaqqol misoldir. Zulfiyaning ijodida bitta muhim jihat kishi e’tiborini o‘ziga jalab qiladi. Bu ham bo‘lsa falsafiy-intellektuallikdir.

## NATIJALAR

Mashaqqatli urush yillari Zulfiyaning iqtidori butunlay ravnaq topadi va o‘ta yorqin tus oladi: uning she’rlarida vatanparvarning serg‘ayrat ovozi jaranglaydi, Vatani mustaqilligi uchun qo‘liga qurol olib kurashayotganlarga, har kunlik chuqur kurash ortida mashaqqatli mehnati ila frontni barcha kerakli narsalar bilan ta’minlayotganlarga nisbatan lirik iliqligi seziladi. “Uni Farhod derdilar” she’rida isyonkor fashistlarga nisbatan nafrat, g‘alabaga ishonch ifodalangan. G‘animga qarshi kurashga chorlov askaro‘g‘il haqidagi ona qo‘shig‘i, xotini va onasini sog‘ingan jasur frontchi, paxlavon eri uchun qayg‘urayotgan ayolning qayg‘uli xavotiri bilan bog‘lanadi. Vataniga, ona yeriga bo‘lgan muhabbati - vatanparvarlikning oliy tuyg‘usi bo‘lib, harbiy janglarning saodatlari yakuniga ishonch bilan birlashadi - bu shunchaki, Zulfiyaning shoirona qalbiga xos o‘ylargina emas, balki o‘zbek xalqining tabiatiga xos milliy fe’l-atvor qirralari bo‘lib, shoiraning she’rlarida yorqin ifodalanadi. Shoira Vatanidan tashqaridagi baxtni tan olmaydi, xatto u yer yaxshiroq bo‘lsa ham: “Axir, baxt ona diyoridagina tirikdir”. Urush yillaridagi she’rlari yuqori badiiy mahorat, yorqin she’riy timsollar va ohanglar ila qayd etilgan, folklor usullar va xalqona nutq o‘zgarishi, adabiy lug‘at bilan mujassamligi seziladi. Qoidaga ko‘ra, nasriy qahramon front hodisalari, xalqning urushdagi hayoti va undagi jangchilarga nisbatan kutilmagan noodatiy yorqin va aniq munosabatini bildiradi. Urush nihoyasiga yetdi, g‘alabani qarshi olishdi, g‘oliblar zavq ila kutib olindi va urushdan qaytmaganlarga ko‘z yosh to’kildi, tinchlik osmoni shoira qalbini egallaydi. Zulfiyaning urush yillaridan keyingi she’rlari yangi falsafiy mazmun bilan to‘yingan; unda urushdan yaralangan haqiqat tasviri kengroq ko‘lamda ifodalanib, xalqning g‘ayratli mehnati kutilmagan ravnaq ila yakun topishi bilan farqlanadi. Uning she’riyatida mehnat mavzusi ustunroq o‘rin egallaydi. U mamlakat saodati uchun o‘z kuchini sarflayotgan

paxtachilarni va ishchilarni, muhandis va olimlarni tarannum etadi. Zulfiya odamlarni, ularning baxtini butun O‘zbekiston mamlakatidan ajratmaydi.

### **Muhokama**

O‘zbek adabiyotida ham kitobxonlar ko‘ngliga o‘z tarjimalari bilan kirib borgan yetuk tarjimonlar bisyor. Shunday mutarjimlardan biri Zulfiyaxonim Isroilovadir. Zulfiya nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo kitobxonlariga tanilgan shoira, taniqli jamoat arbobi, inson qalb kechinmalarini nafis chizgilar ila tasvirlashga qodir qalam sohibasi haqida xotiralarni jonlantirar ekanmiz, uning mohir tilmoch ekanligini ham aytmaslikning iloji yo‘q. Ardoqli shoira Zulfiyaxonim o‘zining boy adabiy merosi, ijodkor sifatidagi faoliyatida o‘zbek ayolining salohiyati naqadar yuksak ekanini ko‘rsatib berdi. U latif ijodi bilan million lab kishilarga ezgulik, muhabbat va sadoqatdan saboq berdi. U qoldirgan boy merosda jahon she’riyatidan qilingan tarjimalar o‘zbek adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin topdi.

Jang-jadallarda har otilgan eng birinchi o‘q

Eng avvalo, ona qalbini teshib o‘tadi.

So‘nggi jangda kim g‘olib-u kim mag‘lub – farq yo‘q,

Lekin ona qalbi dard-u alam yutadi.

Zulfiya she’riyatni ruhan, qalban, jisman his qila oladigan, tushunib uni yetkazib ham bera oladigan kamdan-kam tarjimon shoiralardan biri edi. Tarjimonlik, adabiy mutarjimlik, kasb yo hunar emas, bu san’at, mehr va mahorat, muhabbat, iztirobdir. Zulfiya she’rlarini mutolaa qilayotganimizda qanchalik quvonch, baxt, mehr muhabbat ufurib tursa, shu darajada hijron, ayriliq, iztirobni ham ma’nan his qilib turamiz. Biz bunday tuyg‘ularni nafaqat shoira she’riyatida, balki uning tarjimonlik ijodida ham yaqqol kuzatishimiz mumkin. Birovlarning ko‘nglida boshqalarga nisbatan nafrat qo‘zg‘atish, yomon taassurot qoldirish juda oson, biroq boshqalar, hatto butun boshli millat haqida ezgu tuyg‘ular, insoniy mehr-muhabbat uyg‘ota bilish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Bu oliyjanob ishni amalga oshirishda adabiyotning roli va ahamiyati naqadar beqiyos ekanligiga jahon madaniyatida misollar talaygina. Zulfiya o‘z

tarjimasida asliyatning mazmunini berish bilan birga she'rning shakliga ham katta e'tibor qaratgan. Asliyatning ruhini, ohangini, butun jozibasini, ritmini berolgan. Shoira Zulfiya Ukrainka she'rlarini o'zbek tiliga barmoq vaznida tarjima qilgan. Shuningdek, ikkita oq she'rini ham barmoq vaznida o'girgan. Lekin u barmoq vaznidayam shu ohangni berishga erishgan. Oq she'r hozirgi paytda bizning poeziyamizga ham kirib kelgan. U she'riy shaklda ko'pgina asarlar yaratilgan. Shoira Zulfiya ham bu shaklda tarjima qilishi mumkin edi. U o'zbek xalqining diliqa yaqin bo'lgan barmoq vaznnini tanlagan. Shoira Zulfiyaning san'atkorona tarjima qilgan she'rlaridan biri bu "Umid"dir. Unda mazmun bilan shakl uyg'unligini ko'ramiz. Original sillabik she'r shaklida yozilgan. Bu she'riy uslub xususiyati jihatdan o'zbek adabiyotidagi barmoq vazniga yaqinroq turadi

Na tole na xo'rlik bermadi hayot,  
Faqat umid bilan yashayman, hayhot.  
Go'zal Ukrainam erk olsa yana,  
Aziz, sho'rlik xalqim, qilsa tantana  
Moviy Dneprga to'ymayin boqsam,  
O'lsam ham mavjida sollanib oqsam

Tarjimon mukammal ifodaga erishish uchun badiiy matn yaratish ustida ijodiy mehnatini davom ettirishi uni muvaffaqiyatga eltadi. Hech ikkilanshlarsiz aytishimiz mumkinki, shoira tarjimalari bu muvaffaqiyatga erishdi. Zulfiya tarjimalari eng go'zal ijod namunalardan sanaladi. Asliyat ruhini, ohanggini, ritmini mazmun bilan uyg'unlashtirishga erisholgan. Shundan so'ng shoiraning «She'rlar» va «Qizlar qo'shig'i» (1938-yil), «Uni Farhod der edilar» (1943-yil), «Hijron kunlarida» (1944-yil), «Dalada bir kun» (1948-yil), «Tong qo'shig'i» (1953-yil), «Yuragimga yaqin kishilar» (1958-yil), «Kuylarim sizga» (1965-yil), «O'ylar» (1965-yil), «Shalola» (1974-yil) kabi o'nlab she'riy to'plamlari chop etildi. 1980-yilgacha, qariyb o'ttiz yilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan «Saodat» nomli xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan. U atoqli o'zbek shoiri Hamid Olimjon bilan oila quradi.. Biroq ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada – 1944-yili mashina halokati tufayli turmush

o‘rtog‘idan ayrıldı. Shundan so‘ng umr bo‘yi o‘z muhabbatiga sodiq qolib Hamid Olimjonning ishlarini sabot bilan davom ettiradi. Uning «Semurg», «Zaynab va Omon» dostonlari asosida pyesa va opera librettolarini yaratadi. O‘zi ham «Quyoshli qalam», «Mushoira», «Xotira siniqlari» kabi poemalar yozadi. Rus, ukrain, ozarbayjon, hind shoiralarining she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Zulfiya keng tanilgan jamoat arbobi edi. U Osiyo, Afrika va Yevropaning o‘nlab davlatlarida bo‘lib xalqaro xotin-qizlar hamda adabiyot namoyandalarining harakatlarida faol ishtirok etar edi. Uning she’rlari ingliz, nemis, rus, bolgar, xitoy, hind, yapon, arab, fors, vietnam kabi juda ko‘p xorijiy tillarga tarjima qilingan edi. Shoira 1996-yil 81 yoshida vafot etadi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Isroilovani ijodini milliy zaminga teran tomir otgan daraxtga o’xshatish mumkin. Zulfiya har bir o‘zbek ayoliga o’rnak bo’la oladi. Davr va poeziya ayol erki, ayol qalbi, ona baxti va armonlarini kuylovchiga intizor bo‘lgan paytda Zulfiyaxonim bir chaqmoq kabi ana shu bo‘shliqni to‘ldirib yuzaga chiqdi. Uning sadosi chaqmoqday bo‘lsa-da, davriyligi qisqa bo‘lmadi. Hayot sinovlari, yo‘qotishlar baxtga, muhabbatga limmo-lim qalb tug‘yonlarini to‘sса olmadi. Zulfiyaxonim sermashaqqat ijod bog‘ining haqiqiy malikasi edi. Surati va siyratidan ibo, andisha, muhabbat va mehr yog‘ilib turgan she’r shaklidagi nafosat malikasi! Uning ijodida tabiatga oshuftalik, muhabbat, ayolning pokiza hislari, onalik, mas’uliyat va sadoqat o‘zgacha jaranglaydi. Yuzlab shoira qizlarning ijod bog‘ida quloch yoyishi, minglab ayollarning o‘z qadr-qimmati va erkini to‘la anglay olishi Zulfiyaxonimning sharofati bilan ekanligi hech kimga sir emas, u nafaqat shoira, balki jamoat arbobi sifatida ham dovruq qozondi, qisqacha aytganda, u haqiqiy o‘zbek ayolining ma’naviy qiyofasini yaratdi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M. Zulfiya, Toshkent, 1985; Ibrohimov M., Quyoshli she'riyat ijodkori, Toshkent, 1986;
2. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. Toshkent: „Yozuvchi“, 2000.
3. Naim Karimov. m. G. Gulyama, 1983.
4. Qayumov L. Shoira Zulfiya. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.
5. Sultonova M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975; Zulfiya [bibliografiya], Toshkent, 1977;
6. Umurova G. (2017). Zulfiya badiiy mahoratining ba'zi qirralari //O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent
- 7.G'aniyev I va boshq. Shavkat rahmon olami.-Toshkent
8. SHarafiddinov O. Sizni sog'indim, Zulfiya opa! - Ijodni anglash baxti. - T., SHarq, 2004.